



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
NOMLI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiatshunostlik va geografiya fakulteti biologiya yo‘nalishi 3-
bosqich “A” guruh talabasi G‘. G‘ulomovning zoologiya fanidan
“Madaniy voha qushlari va ularning ekologiyasi” mavzusida yozgan**

REFARATI



**Tekshirdi:
Bajardi:**

**dots. A. Ummatov
G‘. G‘ulomov**

REJA

KIRISH

I. MADANIY VOHA QUSHLARI VA ULARNING EKOLOGIYASI

- 1. Mayna (*Acridotheres tristis* L.)**
- 2. Uy chumchug'i (*Passer domesticus* L.)**
- 3. Turkiston dala chumchug'i (*Passer montanus* L.)**
- 4. Zag'izg'on yoki xakka (*Pica, pica* L.)**
- 5. Chug'urchuq yoki qorashaqshaq - *Sturnus vulgaris* L.)**

II. QUSHLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Hayvonot dunyosi ichida qushlar eng keng tarqalgan guruh hisoblanadi. Qushlar ichida yovvoyi holda erkin yashaydiganlari ko'p uchraydi. Lekin inson yashaydigan xududlarda yashaydigan sinantrop qushlarning ahamiyati beqiyos katta. Qushlarning keng tarqalganligi va ko'p miqdorda oziqlanishi tufayli tabiatga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hasharotxo'r va yirtqich qushlar tabiatda hasharotlar va kemiruvchilarning ko'payib ketishini cheklab turadi. Qushlarning o'zi ham boshqa hayvonlarga oziq bo'ladi. Qushlarning tabiatda oziq zanjirining eng muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Qushlar xalq xo'jaligida katta ahamiyat kasb etadi. Masalan chumchuq, chug'urchiqlar, maynalar bog'dorchilikka sezilarli darajada zarar yetkazadi. Chumchuqlar yozning o'rtalari va ikkinchi yarmida ovqatining ko'prog'ini donli ekinlar-makkajo'xori, oqjo'xori, kungaboqar, bug'doy, mevalar-o'rik, uzumlar tashkil etadi. Ba'zi hollarda uzumzorlarda uzum hosilining 22 dan 100 % gacha qismini chumchuqlar zararlaydi. Bundan tashqari chiqindilar ko'p axlatlarda yurib, kiyin esa dasturxon va idish-tovoqlar ustiga o'tirib, qorin tifi va dizenteriya qo'zg'atuvchilarini tarqatadi (O.P.Bogdanov, 1983 y).

Bog'dorchilik va dehqonchilikda yuqori mahsuldorlikka erishish uchun qushlarning keltiradigan zararini o'rganish muhim. Ba'zi qushlar mayna, chug'urchuqlar bog'dorchilik va dehqonchilikka zarar yetkazgani bilan poloponlarini boqish davrida hasharotlar va ularning lichinkalari bilan oziqlanib yetkazadigan zararidan ko'ra ko'proq foyda keltiradi.

Sinantrop qushlarning hayoti inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning juftlashish, uya solishi, polaponini boqishi, qishloq xo'jaligidagi foyda zararini o'rganish muhim hisoblanadi.

Bog'lar, ekinzorlar va madaniy vohalarni zararkunanda hasharotlardan muhofaza qilishda foydali turlardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa ularni chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zararligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Ekologik muammosi yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb.

Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atlarda qisqarishiga, cho'l-sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'lmoqda.

MADANIY VOHA QUSHLARI VA ULARNING EKOLOGIYASI


1. Mayna (*Acridotheres tristis* L.)

Mayna bizda qiyosan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, 1912 yili ularning bir nechta jufti Termizda topilgan edi, bu yerga ular Afg'onistondan uchib o'tgan ekan. 1926 yili bu qush Kerki shahri (Turkmaniston) da topilgan. 30- yillarda O'zbekistonning janubida, 40-yillari esa Buxoro hamda Samarqand viloyatlarining hamma yerlarida keng tarqalib ketdi. 1955 yili mayna Jizzaxda, 1960 yili esa Toshkent atroflarida paydo bo'ldi. Bu qush Amudaryo bo'ylab tez tarqalib, uning quyi oqimlariga, Qozog'istonga o'tdi.

Hozir Moskva viloyatigacha yetib bordi. Maynaning shimolga qarab tarqalib borish sabablari hozircha aniqlangan emas.

Mayna sochdan ko'ra sal yirikroq qushdir (qanotining uzunligi 135-147 mm). Boshining pastki tomoni va ikkala yoni yaltiroq, kul rang-qora, tomog'i ham ba'zan shu rangda. Tomog'i bilan jig'ildoni aksari bir tusda, ya'ni kul rang bo'ladi. Qanotlari bilan dumi oq aralash, to'qqo'ng'ir, dumining uchi, osti va qanotining tagi oq. Oyoqlari, tumshug'i va ko'zining atrofi patsiz, terisi sariq. Narlari bilan modalarining rangi bir xil. Yoshlari voyaga yetganlariga o'xshash, lekin, patlarining tusi bir qadar xiraroq bo'ladi.

Mayna o'troq qushdir. Turli individlari, chamasi turli joylardar tuxum qo'yishga kirishadi va hatto bitta joyning o'zida ham bir vaqtda tuxum qo'ymaydi, chunki tuxumlari may, iyun, iyul va avgustda topilgan. Bitta modasi bir necha marta urchiydi. Uyalarining daraxt kovaklariga, inlarga, tomlarning orasiga, paxsa devordan qurilgan imoratlarning yoriq-tirqishlariga soladi. Uyasini nari bilan modasi o't-o'lanlar, patlar, kigiz va jun parchalaridan quradi, bularning u yerdan yig'adi yoki sigir va qo'ylardan yulib oladi. Uyasida kattaligi 30x21 mm keladigan 3-6 ta havo rang tuxum bo'ladi. Tuxumlarini modasi bilan nari galma-gal 14 kun bosib yotadi (bunda nari kamroq bosadi). Tuxumdan chiqqan bolalarini uyasida 25





Mayna (*Acridotheres tristis* L.)

kun va ular uyasidan chiqqanidan keyin yana 5 kun boqib turadi. Bir necha kun o'tgandan keyin modasi yana tuxuxm bosishga o'tiradi.

Mayna chigirtka, hasharotlar bilan ovqatlanadi. Bir juft mayna yiliga shu zararkunanda hasharotlarning 150 mingtachasini qirib tashlashi hisoblab chiqilgan. Ko'pincha pashshalar, so'nalar va qo'y bilan sigirlarning ustiga o'tirib olib, boshqa parazitlarni ham tutib yeydi. Bu qushlar kuz paytlarda mevalarni yeb zarar yetkazadi. Qish kezlari axlatxonalar va odamlar yashaydigan turar joylar atroflarida tashlandiq narsalar va don-dunlar bilan oziqlanadi. Mayna chigirtkalarni qirib, katta foyda keltiradi.

2. Uy chumchug'i (*Passer domesticus* L.)

O'zbekistonda Farg'ona hamda Sirdaryo o'rta oqimidan sharqdagi tog'oldi joylar va tog'larning pastki mintaqasida yashaydi. U sirtidan xind chumchug'iga o'xshasa ham, unga nisbatan oqroq. Bu qush o'troq yashaydi. O'zbekistonda xind chumchug'i (*Passer indicus* Jord) uchib ketuvchi qushdir. Narining boshi tepasi va ensasi kulrang tusda, ko'zining orqasida mallanamo jigarrang yo'li bor, quloq teshigi atrofidagi patlari oq yoki oqish.

Modalarining ustki tomoni gugurt qo'ng'ir rangda bo'lib, qora hollari bor. Pastki tomoni qo'ng'irnamo qanotidan ko'ndalangiga oqish yo'li o'tgan. Bu chumchuq vohalar, to'qaylar, saksavulzorlarda yashaydi va qirg'oqdagi jarlarga uya qurishni ma'qul ko'radi. Bu qush bizga aprel oxirlarida uchib keladi. Kuzda uchib ketishi avgust o'rtalaridan boshlanadi va sentabrda tugaydi. Uyalari asosan sharsimon shaklda bo'lib, ularni jarlardagi inlarga, daraxtlarga, kovaklarga, tomlarning bo'g'otlari va boshqalarga soladi. Uyasining devorlarini ko'pincha pat va jun aralashgan ko'm-ko'k mayin o't-o'lanlardan quradi. Kosachasini qalin momiq va pat qatlami bilan qoplaydi. Kirish teshigi dumaloq, uyasi yuqori qismining yon tomonida bo'ladi. Uya kurish davri cho'zilib ketadi. Iyunda ba'zilar uya solayotgan bo'lsa, boshqalari bola ochib chiqqan bo'ladi. Tuxumlari odatda kulrang, qo'ng'irnamo quyuk xol-xollari bo'lib, 5-8 ta qo'yadi.



Tuxum bosish muddati 12 kun atrofida tuxumdan chiqqan polapon 12-13 kunda uchirma



Uy chumchug'i (*Passer domesticus* L.)

bo'ladi. O'zlari hasharotlar bilan oziqlanadi va polaponlarini ham hasharotlar bilan boqadi. May oyining o'rtalaridan boshlab bug'doyzorlarga yopirilib, bug'doy hosilining 24% ini yo'q qiladi. Don ekinlari hosili o'rib-yig'ib olingandan keyin bu qushchalar ming-mingli gala bo'lib, urug'li piyoz, makkajo'xori, oqjo'xoriga yopiriladi, tokzorlar, tariq ekilgan talalar va sholipoyalarni shim-shiydon qilib ketishadi. Tuxumdan chiqqan bolalari uchirma bo'lgandan keyin bu chumchuqlar yerdan-erga ko'chib hayot kechiradi. Tunni ekinzorlar atrofidagi butazorlarda

o'tkazadi. Kunduzi hosili yig'ib olinmagan bir daladan boshqasiga o'tadi. Hind chumchug'i qishloq xo'jaligi uchun eng zararli qushlardan hisoblanadi.

Bog'lar va to'qaylarda qorato'sh chumchuq yoki inson chumchug'i (*Passer hispaniolensis* Temm) yashaydi. U hind chumchug'idan sal yirikroq bo'ladi. Narlari to'shi bilan orqasidan qora rangda bo'lishi, shuningdek yon tomonlarida uzunasiga ketgan qora yo'llari borligi bilan boshqa chumchuqlardan farq qiladi.

Modalari hind chumchug'iga o'xshash bo'ladi. Bu chumchuqlar yil bo'yi gala-gala bo'lib yuradi. Kuzda 500 ta va banday ko'prog'i bir gala bo'lib olsa, qishda birmuncha maydaroq po'dalarga bo'linadi. Qorato'sh chumchuq ko'pincha boshqa qushlar bilan birga bo'ladi. Bu davrda chumchuqlar bir talay hasharotlarni, qo'ng'izlar, chigirtkasimonlar, tungi va kunduzgi kapalaklar, chumolilar, termitlar, o'simlik bitlari va boshqalarni yeydi. Hasharotlardan tashqari ota-ona chumchuqlar bolalariga oq jo'xori donlari, tozalanagan kungaboqar urug'lari, uzum va boshqalarni keltirib beradi. Yozning o'rtalari va ikkinchi yarmida ovqatining ko'pchilik qismini donli va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari makkajo'xori, oqjo'xori, kungaboqar, bug'doy, o'rik, uzumzorlar tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda uzumzorlarda uzum hosilining 22 dan 100% gacha qismini chumchuqlar yeb ketadi degan ma'lumotlar bor. Yoz oxirlari va kuzda chumchuqlardan keladigan zarar kamayadi, chunki bu davrda u asosan begona o'tlarning urug'larini yeydi. Bundan tashqari chiqindi xonalarda va tashlandiqlar joylarda yurib, keyin esa dasturxon va idish tovoqlar ustiga o'tirib, chumchuq oyoqlaridan qorin tifi va dizenteriya qo'zg'atuvchilarini tarqatadi. Dala chumchug'i zararli qush hisoblansa ham, lekin undan yetadigan zarar hind chumchug'i bilan qorato'sh chumchuq keltiradigan zarardan ko'ra kamroq, chunki dala chumchug'i uncha ko'p emas va dalalardan, odamning turar joylari atrofidan ovqat topib hayot kechiradi.

3. Turkiston dala chumchug'i (*Passer montanus* L.)

Turkiston dala chumchug'i O'zbekistonning odam turadigan hamma joyida o'troq xolda yashaydi. U uy chumchug'idan sal kichikroq. Galalarining bir xilligi uzoqdanoq ko'zga tashlanadi. Narlari bilan modalari bir xil rangda. Boshining usti chakkalari va bo'ynining orqasi malla-qo'ng'ir rangda. Quloq sohasining orqa qismida qora xoli bor. Tanasining orqa tomoni kul rang tus aralash gungurt-ko'kimtir-sarg'ish. Qorni oq, ahyon-ahyonda och kul rang.

Dala chumchug'i deyarli butun Yevropa va Osiyoga tarqalgan bo'lib, 66 ta kenja turi bor. O'zbekistonda dala chumchug'i yashaydi. U aholi yashaydigan punktlardan nari ketmaydi, gohogoh daraxtlar, jarlar va qoyalarda uchraydi. Tog'larda tog'oldi joylarini va bag'ri keng ochiq vodiylarni egallaydi. Odamga ergashib tog'larda 2300 m gacha va undan ham yuqoriroq

ko'tariladi. Sahrolarda chekka joylarni egallaydi va aholi turar joylari hamda manzilgohlari bor yerlardagina ichkariga o'tadi.

Yil bo'yi ikki marta, ba'zi joylarda esa uch marta tuxum qo'yadi. Juft-juft bo'lib va ahyon-ahyondagina koloniya bo'lib tomlar bo'g'otiga, imoratlarning yoriq-tirqishlariga, jarlarda boshqa qushlar tomonidan yasalgan inlarga uya quradi. Urchish davri juda uzoqqa cho'ziladi. Bahor erta kelgan yillari fevraldan uya qurishga kirishadi. Respublikamizning janubida aprel boshida, Toshkent va namangan atroflarida faqat may oyida birinchi marta tuxum qo'yadi. Tuxumlari 5-6 dona, kattaligi 19x14 mm bo'ladi. Tuxumining po'sti oq, kul rang yoki sarg'ishroq, mayda qora xollar bilan qalin qoplangan. Tuxum bosib yotadigan vaqti 12 kun atrofida. So'nggi tuxumlaridan chiqqan bolalari avgust oxirida uchirma bo'ladi. Kuzda kichikroq galalar hosil qiladi, bu galalari ma'lum bir joydan nari ketmaydi. Odatda har kuni bitta daraxtning o'zida tunaydi.



Turkiston dala chumchug'i (*Passer montanus* L.)



Turkiston dala chumchug'ining ovqati yil bo'yi o'zgarib turadi. Erta bahorda bu qush meva daraxtlarining yosh novdalari, kurtaklari, gullari, barglari, unib chiqqan madaniy o'simtalar, don va urug'larni, shuningdek hasharotlar va ularning lichinkalarini terib yeydi. Yoz boshlarida, bolalarini boqish davrida chumchuqlar bir talay hasharotlarni (qo'ng'izlar, chigirtkasimonlar, tungi va kunduzgi kapalaklar, chumolilar, termitlar, o'simlik bitlari va boshqalarni) yeydi. Hasharotlardan tashqari ota-ona chumchuqlar bolalariga oqjo'xori donlari, tozalangan kungaboqar urug'lari, uzum va boshqalarni keltirib beradi. Yozning o'rtalari va ikkinchi yarmida ovqatining ko'pchilik qismini donli va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari (makkajo'xori, oqjo'xori, kungaboqar, bug'doy, o'rik, uzum) tashkil etadi. Ashxobodda uzum hosilining 22 dan to 100 protsentgachasini chumchuqlar yeb ketadi. Yoz oxirlari va kuzda chumchuqdan keladigan zarar kamayadi, chunki bu davrda u asosan begona o'tlar urug'larini yeydi. Bundan tashqari tashlandiqlar tashlab qo'yilgan joylarda yurib, keyin esa dasturxon va idish-tovoqlar uchtiga o'tirib, chumchuq oyoqlaridan qorin tifi va dizenteriya qo'zg'atuvchilarini tarqatadi.

Dala chumchug'i zararli qushdir, lekin undan yetadigan zarar hind chumchug'i bilan qorato'sh chumchuq keltiradigan zarardan ko'ra kamroq, chunki dala chumchuq uncha ko'p emas va dalalarga ko'p yopirilmay, odamning turar joylari atrofidan ovqat topib yeydi.

Cho'l chumchuq (*Passer simplex* Licht) kuzda Janubiy Qizilqumda qo'lga tushurilgan. Sharqiy Qizilqumda esa bu qush uya quradi. Katta-kichikligi jihatidan dala chumchuqdek keladi-

yu, lekin boshqa rangda bo'ladi. Narlarining ustki tomoni och kul rang, pastki tomoni oq. Ko'zlari bilan tomog'ining atrofidagi patlari qora. Modalari ko'pincha bir xil yoki xiraroq rangda bo'ladi. Bu noyob qush Qizil kitobga kiritilgan.

Ustyurtda, dov-daraxtlar bo'lmasdan, yakka-dukkam o't-o'lanlar o'sib yotgan tog'oldi joylari va baland tog'larda tosh chumchuq (*Petronia petronia* L.) yashaydi. U hind chumchug'iga qaraganda sal yiriqroqdir. Voyaga yetgan qushlarning jig'ildonida sariq xoli bo'ladi. Bu qush boshqa hamma chumchuqlardan shu belgisi bilan ajralib turadi.

4. Zag'izg'on yoki xakka (*Pica, pica* L.)

Zag'izg'on yoki xakkaning boshi, bo'yin, ko'ragining oldingi qismi, orqasi, dumi qora; yelkasi, ko'ragining orqa qismi va qorni oq, tumshug'i va oyoqlari qora rangdadir. Dumi juda uzun. Bu qush bog'-rog'larda, sohillardagi to'qayzorlarda va tog'lardagi bargli o'rmonlarda yil bo'yi o'troq holda yashaydi.

Martning ikkichi yarmida zag'izg'onlar juft-juft bo'lib oladi va daraxt shoxlarining ayrlariga uya qurishga kirishadi. Uyasining tashqi qavati va tomini chuqur cho'p va xasvalardan quradi, ichki qavatini savatcha ko'rinishida loydan yasab, tagiga o't tashlaydi. Uyasini nati bilan birlashib quradi. Mart oxirlariga borib ba'zi uyalaridagi qushlar endi tuxumini qo'yib bo'lgan bo'ladi. Tuxum qo'yish unchalik bir tekisda o'tmaydi va maygacha cho'zilib ketadi. Uyasida kattaligi 34-24 mm keladigan bir talay qo'ng'ir xolli 5-8 ta havo rang-yashil tuxumlari bo'ladi. So'nggi tuxumini qo'yib bo'lgandan keyin tuxum bosishga o'tadi. 18-19- kuni tuxumlardan patsiz va nimjon bolalar chiqadi. Ota-onalari 17-18 kun uyasida boqadi. Bolalari uyasidan uchib chiqqandan keyin otan-onalari ularni yana 6-8 kun boqib turadi. Bolalari ko'pincha shoxdan-shoxga uchib o'tishni salgina o'rganib olishi bilan uyasini tashlab chiqadi. Mana shu paytda ota-onalari qattiq chig'irlab, bolalarini dushmanlarning hujumidan qo'rqmasdan himoya qilib turadi. Yosh zag'izg'onlarni ko'pincha bolalar tutib olishadi. Zag'izg'on qafasda yashashga tez o'rganadi, asosan qo'ng'izlar (bargxo'rlar, uzunburunlar), kapalak qurtlari, qandalalar, chigirtka va boshqa zararkunanda hasharotlar bilan oziqlanadi. Yoz kezlari zag'izg'onlar ba'zan tut, o'rik, olcha, uzum mevalarini yeydi, tarvuzlarni cho'qib ketadi. Kuz va qishda o'laksalar, tashlandiqlar, oqjo'xori, bug'doy, arpa donlari, begona o'tlarning urug'lari, jiya danaklari bilan ovqatlanadi. Zag'izg'on ziyonidan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Bundan tashqari juda foydali qushdir: ko'k qarg'alar, boyo'g'lilar eski zag'izg'on uyalariga joylashib oladi. Shu sababdan zag'izg'onni qo'riqlash kerak.



Zag'izg'on yoki xakka (*Pica, pica* L.)

5. Chug'urchuq yoki qorashaqshaq - *Sturnus vulgaris* L.

Yashash muxiti va tarqalishi.

Qorashaqshaq asosan Yevropa va O'rta Osiyoda keng tarqalgandir. G'arbiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Shimoli-g'arbiy Osiyoda qishlaydi. O'zbekistonga fevral oyining oxirlarida, martda uchib kela boshlaydi. Bizning o'lkadagi bog'-rog'lar, tog'lar, parklarda yashaydi. Yevropa qishloqlarida qorashaqshaq ko'plab yashaydi. Buning uchun odamlar, qushlar uchun maxsus iplar yasab, daraxtlarga osib qo'yishadi. Sentabr va oktabr oylarida uchib ketadi. O'zbekistonda asosan tog'li joylarda in quradi. May oyida tut pishib qolgan kezlarda O'zbekistonning qishloq va shahardarida soch-chug'urchuq galalari paydo bo'ladi. Ular qatgiq chug'urlab daraxtdan-daraxtga uchib o'tadilar va pishib turgan tutlarni yeb ketishadi. Narlarining boshida uzun o'sgan qora patlardan iborat toji ya'ni sochv bor. Bo'yni, jig'ildoni, qanotlari, dumi qora, metalga o'xshab ko'kimtir binafsha rang bo'lib tovlanib turadi. Orqasi, to'shi, qorni va ikki yon tomoniga och pushti tusda. Modasining rangi unchalik och emas. Sochi ancha kaltaroq. Yosh qushchalari oqish-qo'ng'ir, qorni oqish bo'ladi. Qanotining uzunligi 119-135 mm O'zbekistonda asosan tog'oldi joylarvda uya quradi. Ustyurtda ham uchrab turadi. Oldingi Osiyoda, butun Hindiston va Shrya Lanka orolida qishlaydi. Mart oxiri va aprelning boshlarida bizga uchib keladi. Kuzda uchib ketish vaqtv notayin. Ovqat kam bo'lsa, bu qushlar iyul yoki avgustda, boshqa yillari, sentabr o'rtalarida yo'q bo'lib qoladi. Bir nechta mingtasi birga qo'shilib katta-katta koloniya bo'lib uya quradi. Uyasini ko'pvncha toshlar orasiga, goh-gohida jarlardashi inlarga soladi. Uyasini nari bilan modasi birga quradi. Nari o't-o'lanlarni tashib keltiradi, modasi ularni joylab terib chiqadi. To'shamalarida tuxum qo'ya boshlaydi. May o'rtalarida tuxum qo'ya boshlaydi. Uyasida kattaligi 26-21 mm keladigan 4-6 ta och havorang tusli tuxum bo'ladi.

May oxirlarida patsiz-ko'zi yumuq, nimjon qush bolalari tuxumdan chiqadi. To'rtinchi, beshinchi kuni ko'zlari ochiladi. 20 kundan keyin qushchalar uchirma bo'lib, uyalarini tashlab chiqadi. Soch-chug'urchiq chigirtkalarni ko'plab qiradigan qushdir. Voyaga yetgan 1 ta qush kun bo'yi 200 tacha chigirtkani yeb katta foyda keltiradi. Buncha chigirtkaning vazni 200 g keladi. Chigirtka ko'p bo'lsa bu qushlar ularni o'ldirib bo'lgach tokzorlarga yopirilib, zarar yetkazadi. Uzunxo'r bu qushlarni bog'bonlar poroxi kam, ammo pitrasi ko'p bo'lgan, maxsus tayyorlangan o'qlar bilai cho'chitib qaydashadn. Bunday pitra o'qlar qushlarga tekkani bilan ularni o'ldirmaydi. Bir necha marta cho'chitilsa qushlar tokzorga kelmay qo'yadi.

Soch-chug'urchik, foydali qushdir. Qanchadan-qancha chigirtkani yo'q qilib, u tokzorlarga keltirgan zararini ortig'i bilan qoplab boradi. Bunday tashqari bu qushlar zararkunanda qo'ng'izlar, qandalar, kapalak qurtlari va boshqa qasharotlarni qirib foyda keltiradi. Bu qushni qo'rikdash, himoya qilish kerak.

Qorashaqshaq musichadan sal kichikroq keladigan metalldek yaltirab turadigan qush, Kuz vaqtlarida patlar:dda oq yoki och sariq bir talay xollari bo'ladi.

O'lchamlari.

Qanotining uzunligi 118-135 mm Og'irligi 80-100 g



Chug'urchuq yoki qorashaqshaq - *Sturnus vulgaris* L.

Uya solishi va ko'payishi.

Uchib keltan qorashaqshaqlar juft-juft yoki kichik-kichik koloniya bo'lib joylashadi va daraxt kovaklariga uya quradi. Ba'zan ular jarlardagi inlarga yoki bino karnizlarining tagiga uya soladi. Uyasini modasi bilan nari birga quradi va ustiga o't-o'lav hamda xonaki parrandalarning patlarini to'shaydi. Tuxum qo'yish payti aprelga to'g'ri keladi. Kattaligi 29-21 keladigan bir xil rangda, och xovorang tusda bo'ladigan 4-6 ta tuxum qo'yadi. Tuxum bosish so'nggi tuxumini qo'yib bo'lganidan keyin boshlanadi va bu davr 14-15 kun davom etadi. Tuxumlarini modasi bilan nari galma-gal bosib yotadi. Narlari modasiga qaraganda kamroq guxum bosadi. Tuxumdan chiqqan bolalari ko'zi yumuq va o'zi nimjon bo'ladi. 14-18 kun davomida uyasida turadi. Ular uchirma bo'lib uchib chiqqanidan keyin ota-onalari yana 10-14 kuk davomida ularni qo'ng'izlar, kapalaklar va ularning qurtlari bilan boqib turadi.

Oziqlanishi va ahamiyati.

Qorashaqshaqni tut pishgan kezlarda O'zbekistonning qishloq va shaharlarida uchratish mumkin. Ular qattiq chug'urlab daraxtdan-daraxtga uchib o'tadilar va pishib turgan tutlarni yeb ketishadi. Ko'plab chigirtkalarni qirib, qishloq xo'jaligiga juda katta foyda keltiradi. Voyaga yetgan bitta kun bo'yi 200 tagacha chigirtka yeydi, buncha chigirtakaning og'irligi qushning og'irligidan 2-2,5 baravar og'irroq bo'ladn (taxminan 200 g). Chigirtka ko'p bo'lsa, bu xildagi qushlar chigirtkalarni yeya olmay qolganidan ham ularni o'ldirib, tashlab ketadi. Polaponlarini asosan qo'ng'izlar, kapalak qurtlari, boshqa hasharotlar bilan boqadi. Yosh bolalari uchirma bo'lganidan keyin ko'pincha tokzorlarga yopirilib, zarar keltiradi. Uzunxo'r bo'lgan bu qushlarni poroxi kam, ammo pirusi ko'p bo'lgan maxsus tayyorlangan o'qlar bilan cho'chitib haydashadi. Bundan pitra qushlarga tekkani bilan ularni o'ldirmaydi. Bir necha marta o'q uzilganidan keyin bosqinchi qushlar tokzorlarga kelmay qo'yadi. Bu qushlar juda foydalidir. Tokzorlarga keltirgan zararidan ko'ra, chigirtkalarni ko'plab qirib foyda keltiradi.

Qorashaqshaq tipik uchib ketuvchi qushlar guruhiga kiradi. Ular asosan aprel-may oylarida uchib keladi. Sentabr oylariga kelib uchib ketadi. Qorashaqshaklarning galalarini paydo bo'lishi odatda tut pishig'iga to'g'ri keladi. Bu davrlarda ayniqsa populyatsiya soni kuzga borib san jihatdan ortgan paytda ularning zarari ancha seziladi. Lekin ko'payishi paytida ularning bitta oilasi 1-1,5 kg gacha zararli hasharotlarni yo'q qilib foyda keltiradi.

Bundan tashqari bu qushlar zararkunanda qo'ng'izlar, qandalar, kapalak qurtlarini qiradi. Gilos, olcha, tut, ituzum, uzum mevalarini, oq jo'xori. Sholi, tariq, bug'doy, mosh

donlari bilan oziqlanadi. Biroq olcha, gilos, uzum ko'pi bilan ovqatining 10 % ini, hasharotlar esa 60 % ini tashkil etadi. Shunday qilib bu qushning ziyonidan ko'ra foydasi ko'p hisoblanadi. Bu qushni qo'riqlash va bog'-rog'larimiz hamda parklarimizga jalb etish kerak.

Qorashaqshaqdan tashqari biz yashayotgan o'lkada-soch chug'urchuq ham uchrab turadi.

QUSHLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Qushlarning amaliy hamiyati.

Qushlarning inson xo'jalik faoliyatidagi ahamiyati juda katta va nixoyatda xilma-xildir. Ko'pgina turlari qadimdan va hozirgi kunga qadar odam tomonidan xonakalashtirilgan va ulardan go'sht, tuxum, tivit kabi maxsulotlar olinadi. Yovvoyi turlari esa qishloq xo'jaligi baliqchilik va ovchilik xo'jaligida xamda sog'likni saqlash va aviatsiyada katta ro'l o'ynaydi.

Kushlarning qishloq va o'rmon xo'daligidagi axamiyati.

Dalachilik, polizchilik, bog'dorchilik va o'rmonchilik xo'jaliklarida ko'pchilik qushlar zararli xashorotlar va kemiruvchilarni qirib, qishloq va o'rmon zo'jaligiga juda katta foyda keltiradi. Bularga chittaklar, moyqutlar, dumparastlar zarg'aldoqlar, kakku, olaqizilishtonlar, ko'kqarg'a, miqqiy, sor, kuykinak, baliqchi va ko'pgina boshqa qushlar misol bo'la oladi. Soch yoki ola chug'urchuqning bitta koloniyasi kaptarlar Meklenbursevning malumotlariga ko'ra O'rta Osiyoda bir oy mobaynida ko'payish vaqtida 100000 ming dona chigirtkani qiradi. Shu bilan birga, ola chug'urchuq bolalarini ochib chiqqandan keyin gilos, olxo'ri va uzumzorlarga xujum qilib ancha zarar yetkazadi. M.D. Zverevning xisoblariga ko'ra Novosibirsk shaxri atrofida qora chug'urchuqning bitta oilasi bir uya davrida 7800 dona may qo'ng'izi va ularning lichinkalari bilan ovqatlangan. Yoki miqqiy xar kuni uyasiga 10 dona kemiruvchilarni (yumronqoziq, va sichqon) keltiradi yoki bir oy davomida, ya'ni bolalarini boqish davrida bir juft miqqiy 270ta kemiruvchilarni qiradi. Shu keltirgan misollarni o'zi qushlarni qo'riqlash va ularni sonini oshirish qanchalik zarur ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa ko'payish vaqtida qushlarni bog', park, polizlarga, jalb qilish nixoyatda zarur. Chunki bu davrda ularning faoliyati keskin oshadi. Buning uchun sun'iy uyalar yasab erta baxorda kerakli joylarga osib qo'yiladi. Sun'iy uyachalarni o'lchamini qushlarning o'lchamiga qarab tavsiya etiladi. Masalan, chittak, kulrang pashshaxo'r burma bo'yin, dala chumchuqlari uchun yasalgan uyachani ichki devorlari orasidagi masofa 10-12sm, ichki balandligi, 17 sm. Kirayotgan teshikdan uyachaning orasidagi masofa 3, 4, 5sm. bo'lsa, chug'urchuq, sasiqpo'pishak boyo'g'li uchun yuqoridagilarga muvofiq 13-15 bo'lishi lozim. Zag'cha, ko'kqarg'a, miqqiy qushlar uchun muvofiq ravishda 16-18,

22,5,7,9,2,5,bo'yicha tavsiya etiladi. Qushlarning qishloq va o'rmon xo'jaligiga juda katta foyda keltirishi bilan birga, don xo'jaliklariga sezilarlik darajada zarar keltiradi.

Ovlanadigan qushlar.

Rossiya qush ovlash bo'yicha dunyoda birinchi o'inni egallaydi. Mamlakatimiz bo'yicha 150 tur qushlar ov qilinadi. Shulardan eng ko'pi g'ozsimonlar va tovuqsimonlar xisoblanadi. Xozirgi vaqtda 40-50 million dona qush tutiladi. G'ozsimonlar asosan g'arbiy sibir va shimoliy qozog'istonda tutiladi. Tutilayotgan qushlarning eng ko'pini (70%) oq quropatka, ryabchik (6%) qur (5%) tashkil qilsa qolganini ko'k quropatka qirg'ovullar tashkil qiladi. Bulardan tashqari qushlar ilmiy va estetik ahamiyatga egadir. Chunki ular go'zal tabiatimizning ajralmas qismi. Ular o'zining go'zalligi xarakatchanligi va yoqimli ovozi bilan inson uchun foydalidir.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa aniqki aksariyat ko'pchilik qushlar inson xayoti uchun nixoyatda foydalidir. Shu sababli ularni xar tomonlama mxofaza qilish kerak. Yuneskonning tashabbusi bilan 1948 yil 5 oktabr tabiat va tabiiy boyliklarni ximoya qilish xalqaro uyushmasi tuzildi. Xozir bu uyushmaga 40 ta mamlakat kiradi. Shu uyushmaning shartnomalariga ko'ra davlatlar o'rtasida soni kamayib borayotgan, xayoti xavf ostida qolgan qushlar va ularning qishlash xamda uya qo'yish joylari qo'riqlanadi. Uyushmaning tashabbusi bilan 1966 yida "SSSR Qizil kitobi" va 1983 yilda "O'zbekiston qizil kitobiga" Jumxuriyatimizda yashayotgan qushlardan sakkoqushlarning ikki turi Turkiston oq laylagi-qoralaylak, qizilqanot shipun oqqushi, oqqush, kichik oqqushi, marmarli churрак alqa, skopa, uzun dumli burgut, oq dumli burgut, cho'l burguti, qiron qora burguti, bolta yutar, qumay ilonxo'r burgut, yo'rg'a tuvaloq, oqbovur, osiyo loyxo'ragi, va cho'l chumchug'i kiritilgan hammasi bo'lib 31 tur.

XULOSA

1. Andijon viloyati sharoitida keng tarqalgan madaniy voha qushlariga

- Mayna (*Acridotheres tristis* L.)
- Uy chumchug'i (*Passer domesticus* L.)
- Turkiston dala chumchug'i (*Passer montanus* L.)
- Zag'izg'on yoki xakka (*Pica, pica* L.)
- Chug'urchuq yoki qorashaqshaq (*Sturnus vulgaris* L.)

2. Yuqoridagi turlarning kunlik ovqatlanishi o'ziga xos bo'lib, uning tarkibiga hasharotlar, lichinkalar, qo'ng'izlar, donlar, urug'lar, mevalar va har xil chiqindi moddalar kirib, zararkunanda hasharotlar ovqatlik ratsionining 50-80% ni tashkil etadi.

3. O'troq holda yashaydigan turlarga chumchuq, maynalar, qaldirg'och chug'urchuqlar va zag'izg'onlar esa uchib ketuvchi qushlarga kiradi.

4. Bizning sharoitimizda yuqoridagi turlarning ko'pchiligi ko'payish davrida 2-3 marta nasl beradi. Qaldirg'ochlar va maynalarning ovqatlanish intensivligi ertalabki soat 6 dan 10 gacha, kechki aktivligi esa 15 dan 18 gacha davom etadi.

5. Mayna, chug'urchuq, chumchuqlar ko'payib, ularning populyatsiyalar soni ortgandan keyin mevalarni, donlarni yeb, bog'dorchilik va uzumchilikka zarar yetkazadi. Ularning zararli faoliyati kuzgi mevalar pishgan vaqtga borib, ko'proq namoyon bo'ladi.

6. Ko'chmanchi qushlarning hayoti, hulq-atvorini, ko'payish xususiyatlarini o'rganish bilan birga, ularning doimiy kuchib yurishlar migratsiyalari bilan bog'liq populyatsiyalar sonini o'zgarishini nazorat qilish, katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

7. Andijon viloyati sharoitida kuzgi va bahorgi migratsiyalar davrida qushlarning 50 ga yaqin turlarini uchrashi o'rganilib, kuzgi-qishgi mavsumda asosan go'ngqarg'a, mayna, ola qarg'a, qoraqarg'a, zag'chalar; bahorgi-yozgi mavsumda esa, qaldirg'ochlar, chug'urchuqlar, maynalar dominantlik qilishligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarova N., Ummatov A. Qaldirg'ochlar hayoti va ekologiyasi XXI-asr fani: Muammolar va yechimlar. Iqtidorli talabalar va yosh olimlar ilmiy anjumani materiallari. Andijon, 2002 y.
2. Asqarova N., Axmadxo'jaeva D., Ummatov A. Andijon ornitofau-nasidagi uchib keluvchi qushlar ekologiyasi. "Kimyo fani va uni o'qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi mintaqaviy ilmiy-uslubiy anjuman ma'ruza tezislari to'plami, Andijon, 2005.
3. Mo'minova M., Ummatov A. Atrof-muhit ekologiyasining dolzarb masalalari. "Kimyo fani va uni o'qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi mintaqaviy ilmiy-uslubiy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. Andijon, 2005.
4. Ayupov A.N., Ataxodjaev A.A., Abdunazarov X.A. Tog' daryolarida uchraydigan umurtqali hayvonlar va ularning ekologiyasi (Oqsoq-ota misolida). Akademik T.Z. Zoxidov tavalludi 100 yilligiga bag'ishlangan "Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari" ilmiy amaliy kanferensiya ma'ruzalar to'plami. Toshkent, 2006.
5. Ayupov A.N., Ataxodjaev A.A., Abrammatov M.B. Madaniy landshaft elementlari va unda hayvonnot olamini shakllantirish. Akademik T.Z. Zoxidov tavalludi 100 yilligiga bag'ishlangan

“Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari” ilmiy amaliy kanferensiya ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2006.

6. Bakoev S., Xolboev F. Buxoro shahri sharoitidagi ayrim ornitologik muammolar va ularni oldini olishga doir tavsiyalar. Akademik T.Z. Zoxidov tavalludi 100 yilligiga bag‘ishlangan “Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari” ilmiy amaliy kanferensiya ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2006.

7. Bakoev S., Xolboev F., Sharopov A. Agrobiotsenozlarda qushlarning ekologiyasini o‘rganish-dolzarb masalalari. Akademik T.Z. Zoxidov tavalludi 100 yilligiga bag‘ishlangan “Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari” ilmiy amaliy kanferensiya ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2006.

8. Bogdanov O.P. O‘zbekiston hayvonlari. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1983.

9. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.